




**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi  
xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*2022- yil yanvar-mart (dastlabki ma ’lumot)*

Joriy yilning yanvar-mart oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o‘rtacha oylik ish haqi 2611,6 ming so‘mni tashkil etdi va buni hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Termiz shahrida 3704,3 ming so‘mni (o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 141,8 %), Jarqo‘rg‘on tumanida 2643,8 ming so‘mni (102,0 %), Oltinsoy tumanida 2180,3 ming so‘mni (83,5 %), Sherobod tumanida 2099,1 ming so‘mni (80,4 %), Sho‘rchi tumanida 2262,4 ming so‘mni (86,6 %), tashkil etdi.

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda  
ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)  
2022- yil yanvar-mart (dastlabki ma ’lumot)*



**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so‘mda**

	<b>Yanvar-mart</b>		<b>O‘sish sur’ati, %</b>
	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>	
<b>Jami</b>	2281,7	2 611,6	114,5
<b>Termiz sh.</b>	2983,8	3704,3	124,1
<i>tumanlar:</i>			
<b>Oltinsoy</b>	1854,5	2180,3	117,6
<b>Angor</b>	1999,1	2352,5	117,7
<b>Bandixon</b>	2011,3	2246,4	111,7
<b>Boysun</b>	2053,7	2221,3	108,2
<b>Muzrabot</b>	1956,0	2248,9	115,0
<b>Denov</b>	2064,7	2397,8	116,1
<b>Jarqo‘rg‘on</b>	2715,1	2643,8	97,4
<b>Qumqo‘rg‘on</b>	2008,7	2286,6	113,8
<b>Qiziriq</b>	1952,6	2128,7	109,0
<b>Sariosiyo</b>	2208,0	2478,9	112,3
<b>Termiz</b>	2024,7	2503,6	123,7
<b>Uzun</b>	2054,6	2214,2	107,8
<b>Sherobod</b>	1822,6	2099,1	115,2
<b>Sho‘rchi</b>	1941,5	2262,4	116,5

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

**Sanoat** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3154,8 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 23,6 % ga oshdi.



➤ **Qurilish** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3535,4 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 8,4 % ga oshdi.

➤ **Savdo** sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2232,4 ming so‘mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 1,1 % ga kamaydi.



➤ **Tashish va saqlash** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3898,8 ming so‘mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 9,3 % ga oshdi.

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

- **Axborot va aloqa** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3780,5 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 24,5 % ga oshdi.



- **Moliya va sug‘urta** sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5994,7 ming so‘mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 36,6 % ga oshdi.



- **Ta’lim** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2336,2 ming so‘mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 10,8 % ga oshdi.



- **Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2243,0 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 16,2 % ga oshdi.

## **O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**




➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2975,5 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 24,3 % ga oshdi.

➤ **2022- yil yanvar-mart oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2611,6 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 114,5 % ga o‘sgan.**

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022- yil 1- martdan 822000,0 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИНИНГ  
МЕХНАТ КОДЕКСИ

★  
ТРУДОВОЙ КОДЕКС  
РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН

Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi  
tel: (76) 225-65-60